

T A' LIM Z I Y O S I

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

**UNIVERSITET
GAZETASI**

6-son

Gazeta ichida gazeta

MEN UCHUN UYG'ONISH, IZLANISH UA O'ZGARISH DAURI

Ba'zan hayotda shunday bir nuqtaga yetib kelaymizki, to'xtab, chuqur nafas olib, o'zimizga savollar bera boshlaymiz: "Men hozir qayerdaman?", "Qayerga qarab ketayapman?", "Vaqtimni to'g'ri sarflayapmanmi?". Ana shunday mulohazalar meni hayotimdagi yangi sahifa – "Dolzarb 90 kun" loyihasiga olib keldi.

Bu oddiy sanalardan iborat davr emas. 90 kun ichida men o'z ustimda ishlashga qat'iy kirishib, har bir tongni reja bilan boshladim, har bir tunni esa tahlil bilan yakunladim. Yashash – bu faqat nafas olish emasligini, balki har daqiqani mazmun bilan to'ldirish lozimligini angladim. Eng asosiysi – vaqtni boshqarishni o'rgandim. Endi vaqt meni emas, men uni boshqarishga harakat qilaman.

Bu 90 kunlik sayohatning yuragi – ilm va ijod edi. Men tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishida tahsil olaman. Har bir dars, har bir kitob, har bir ilmiy ish – mukammallik sari qo'yilgan qadamlar bo'ldi. Ayniqsa, o'z sohamga oid maqolalarni o'qish, rassomlar ijodini tahlil qilish, uslublarni o'rganish – menga cheksiz ilhom bag'ishladi.

Akvarel texnikasida chizilgan har bir manzara mening qalbidagi tuyg'ularimning rangli aksidir. Rasm chizish jarayonida men o'z fikrlarim, orzularim, ba'zida esa ichimdagi savollar bilan yuzlashdim. Har bir rasm – mening hikoyam. Chunki san'at – so'zsiz, ammo kuchli ifoda vositasi. "Dolzarb 90 kun" loyihasi ichida ijod menga o'zimni anglashda ham, ruhiy tetiklikda ham yordam berdi.

Loyiha davomida oddiy ko'rinadigan, ammo muhim hayotiy odatlarni ham shakllantirib boryapman. Uy yumushlari, pazandalik, tartib-intizom – bularning bari menga mas'uliyat, mehnatga hurmat va oilaviy qadriyatlarga sadoqatni singirdi. Har kuni tongda kunlik rejalarini tuzish, bajarilgan ishlarni belgilash kabi oddiy amallar ortida ichki intizom yotadi. Bu esa o'z navbatida, hayotga boshqacha nazar bilan qarashga o'rgatdi.



Albatta, kitoblar bu yo'lda eng yaqin hamrohlarimdan biri bo'lmoqda. Ular bilan do'stlashdim. Har kuni o'qilgan sahifa, o'rganilgan fikr meni yangi dunyolarga boshladi. Ayniqsa, ijodkorlarning hayoti, ularning yengilmas ruhi menga saboq bo'ldi. Ta'til davomida men nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki o'zimni anglash, his-tuyg'ularni boshqarish, ichki uyg'onish tomon qadam tashladim. Endi yaxshi bilaman: inson hayotida o'zgarish qilishni istasa, bu tashqi sabablar emas, balki ichki qaror bilan boshlanadi. "Dolzarb 90 kun" men uchun oddiy vaqt emas, balki ruhiy uyg'onish, ongli yashash va kelajakka tayyorgarlik davri bo'lmoqda. Harakat va qat'iyat bu davrning bosh ustuvor qadriyatlari bo'ldi. Endi esa, ushbu 90 kunda orttirgan kuch, ishonch va tajriba bilan hayotimda yangi marralarga qarab dadil odimlayman.

Bugun men aniq ayta olaman: kechikish emas, harakatsizlik qo'rqinchli. Harakatda baraka bor!

DiInavoz FAYZULLAYEVA,
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
yo'nalishining 2-bosqich talabasi



SIZ BILGAN VA BILMAGAN 12 FAKT

- ◆ Dastur maqsadlari doirasida Toshkent viloyatidagi 50 dan ortiq maktablarning 5 500 dan ziyod o'quvchi-yoshlari qamrab olindi.
- ◆ Bolalar dam olish oromgohlarida 103 nafar talabamiz 7 000 dan ortiq o'quvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini ulashmoqda.
- ◆ 100 dan ortiq talabalarimiz o'zlari yashab turgan hududlarda xorijiy til to'garaklarini tashkil etib, 1 100 nafardan ziyod yoshlarni jalb qilishga muvaffaq bo'ldilar.
- ◆ Ta'til davrida Universitetimizning 5 ta yopiq va 3 ta ochiq sport maydonlari faoliyat yuritmoqda.
- ◆ Talabalar jamoasi 127 marotaba tarixiy obidalar, muzeylar va boshqa turizm maskanlariga sayohat uyushtirdilar.
- ◆ 296 nafar professor-o'qituvchilar "DOLZARB 90 KUN" doirasida tashkil etilgan tadbirlarda ishtirok etdilar.
- ◆ Universitet jamoasi "Kitobxon yoz – 2025" loyihasi doirasida 9 876 ming nomdagi badiiy adabiyotlarni o'qib tugalladi.
- ◆ "Yozgi ijod markazlari"dagi 106 nafar talaba-yoshlarning ijodi kitob shakliga keltirildi.
- ◆ Talabalar va hududlardagi mahallalar yoshlari o'rtasida 73 marotaba sport musobaqalari tashkil etildi.
- ◆ Ta'til davrida 2540 nafar talaba ishlash va qo'shimcha daromad topish imkoniyatiga ega bo'ldi.
- ◆ 326 nafar talaba volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqda.
- ◆ "Chumoli" talabalar media guruhi 31 ta foydali kontentlar yaratdi va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirdi.

SAN'ATGA OSHNO QALBLAR UCHUN



San'atshunoslik fakulteti tomonidan "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida "Shodlik" mahalla hududidagi tasviriy san'atga qiziquvchi maktab o'quvchilari uchun CHDPU qoshidagi "ART-TIME" markazida rasm chizish mashg'ulotlari tashkil etildi.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarga chizmachilik asoslari, ranglar uyg'unligi, obraz yaratish va ijodiy yondashuv bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalar berilmoqda.

Ushbu tashabbus yoshlarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, tasviriy san'atga mehr uyg'otish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

Mashg'ulotlarni kelgusida tizimli davom ettirish maqsadida universitet talabalari ham ushbu faoliyatga birlashtirildi.



"SPORTNI SEV, SPORT BILAN YASHA"

Mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan o'quvchi-yoshlarning yozgi ta'til davrini mazmunli tashkil etish, ularni madaniy, ma'rifiy va sport tadbirlariga faol jalb qilish maqsadida "Dolzarb 90 kun" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyiha ijrosi yuzasidan Jismoniy madaniyat fakulteti professor-o'qituvchilari tomonidan Chirchiq shahrida va Bo'stonliq tumanida joylashgan umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda turli sport musobaqalarini tashkil etib, loyihaning amaldagi ijrosini ta'minladilar.

Xususan, Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi kafedrasida professor-o'qituvchilari tashabbusi bilan sportning futbol turi bo'yicha Chirchiq shahar va Bo'stonliq tumanida joylashgan umumta'lim maktablari o'rtasida o'tkazilgan "Rektor kubogi" musobaqalari shular jumlasidandir. 14-iyundan 21-iyungacha davom etgan mazkur musobaqaga 150 dan ortiq maktab o'quvchilari qamrab olindi. Bir hafta davom etgan shiddatli bahslardan so'ng g'olib jamoalar

aniqlandi.

Natijalarga ko'ra:

1-o'rinni – Chirchiq shahar 7-sonli umumta'lim maktabi;
2-o'rinni – Bo'stonliq tumanidagi 12-sonli umumta'lim maktabi;

3-o'rinni – Chirchiq shahar 21-sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari jamoasi egalladi.

Bu kabi musobaqalarning uzviy davomi sifatida fakultetning "Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida" o'qituvchilari tomonidan Chirchiq shahridagi umumta'lim maktablar va uyushmagan yoshlari o'rtasida ham futbol musobaqasi tashkil etildi. Mazkur musobaqada 100 dan ortiq maktab o'quvchilari va 30 dan ziyod uyushmagan yoshlar qatnashdi. Musobaqa natijalari esa quyidagicha bo'ldi:

1-o'rin – Chirchiq shahar 1-sonli umumta'lim maktabi jamoasi;

2-o'rin – Chirchiq shahar 15-sonli umumta'lim maktabi jamoasi;



3-o'rin – Chirchiq shahar uyushmagan yoshlar jamoalariga nasib etdi.

Har ikki musobaqa g'oliblari fakultet rahbariyati tomonidan munosib taqdirlandilar.

Bunday musobaqalardan ko'zlangan asosiy maqsad esa yozgi ta'til davomida o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ommaviy sportni va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdan iboratdir.

Kamola ABDAMITOVA, 1-bosqich magistranti

M

AZMUNLI AHORAT ARKAZI

“Dolzarb 90 kun” loyihasi o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini nafaqat dam olish, balki o'z ustida ishlash, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash orqali samarali o'tkazishlariga turtki berdi. Universitet tomonidan Chirchiq shahri yoshlarini ijtimoiy-ma'naviy hayotga jalb etish, ularning qiziqish va iste'dodlarini ro'yobga chiqarish maqsadida bir qator to'garaklar tashkil etildi.



Mazkur tashabbus doirasida Gumanitar fanlar fakultetida “Yozgi ijod markazi” faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu markaz orqali o'quvchi-yoshlar adabiyot, badiiy tafakkur va estetik dunyoqarash borasida o'z bilimlarini boyitib, mashhur yozuvchilar hayoti va ijodini chuqur o'rganishmoqda. Mashg'ulotlar doirasida o'tkazilayotgan ijodiy suhbatlar, kitob muhokamalari va ochiq muloqotlar talabalar orasida adabiyotga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, universitet dotsenti, shoira Gulandom Tog'ayevaning markazga rahbarlik qilayotganligi yoshlar e'tiborini yanada tortdi.

Matematika va informatika fakultetida talabalar va mahalla yoshlari ishtirokida “Bir talabaga – bir loyiha” akseleratsiya dasturi asosida “Mening startap loyiham” nomli amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Ushbu treninglarda zamonaviy

IT yo'nalishlarida amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash, yangi g'oyalar ustida ishlash va loyiha yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Turizm fakultetida xorijiy tillarga qiziquvchi o'quvchilar uchun ingliz tilini o'rganishga qaratilgan “Improve your reading skills” va “Cambridge kids” nomli amaliy to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu loyihada ishtirok etayotgan yoshlar zamonaviy metodikalarga asoslangan mashg'ulotlar orqali so'z boyligini oshirib, muloqotga kirishish malakalarini shakllantirishmoqda. To'garaklar San'atshunoslik fakulteti qoshidagi “ART studiya” yoshlarning sevimli maskaniga aylangan. Studiya tasviriy san'atga qiziquvchi yoshlarning badiiy-estetik didini shakllantirish, ularni milliy va jahon san'ati namunalaridan bahramand etish, shuningdek, amaliy ijod orqali o'z iqtidorini namoyon qilishga keng imkoniyat yaratmoqda.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida universitetda yo'lga qo'yilgan bu kabi tashabbuslar orqali shahar yoshlariga nafaqat yangi bilimlar berilmoqda, balki ularning mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va o'z iqtidorini ro'yobga chiqarish ko'nikmalari ham shakllantirilmoqda.

Zilola AVG'ANOVA,
Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-
ma'rifiy bo'lim uslubchisi

SAYOHATDAN TOP YAPMAN ROHAT

Bu yil Turizm fakultetining bitiruvchi kursiga o'tdim. Bu sohada amaliyot juda muhim. Ta'til kunlari “Vip Travel” sayyohlik agentligida sotuv menejeri lavozimida ishlayapman. Yurtimiz turistik salohiyati targ'iboti bilan faol shug'ullanayotganligimdan mamnunman.


Ish kunim sayyohlar bilan muammolarni muhokama qilish, yangi sayyohlik joylarini o'rganish va dunyo turizmi haqidagi so'nggi ma'lumotlarni tahlil qilishdan boshlanadi.

Ish tajribam shuni ko'rsatdiki, o'zbek yoshlari sayyohlik agentligiga kam murojaat qiladilar. Sayohat qilishdan bosh tortishlarining asosiy sabablaridan biri – mablag' yetishmasligi deb o'ylayman.

Aksariyat yoshlar sayohat uchun juda ko'p mablag' talab etiladi, degan fikrdalar, noto'g'ri.

Men “Ko'chmanchi Mett” nomi bilan tanilgan Mettyu Kepnesning kitoblarini ko'p o'qiyman. U – amerikalik sayyoh, bir necha bestsellerlar muallifi, blogger.

Men hurmat qilgan Mettyu Kepnes zerikarli kotiblik kasbini tashlab, dunyo bo'ylab sayohatga yo'l oladi. O'shandan beri Mett deyarli 80 mamlakatda bo'ldi va professional sayohatchiga



aylandi. Endilikda u o'z tajriba va ko'nikmalarini boshqalar bilan bo'lishmoqda. Uning yangi kitobi “Qanday qilib kuniga 50 dollar sarflab, dunyo bo'ylab sayohat qilish mumkin” deb nomlangan.

O'zbekiston butun islom olamida haqli ravishda ziyorat turizmining manzillaridan biri deb tan olingan. Bunga sabablar ko'p. Jumladan, mamlakatimiz hududida turli konfessiyalar rivojlanishi bilan bog'liq ko'plab yodgorliklar va tarixiy joylar mavjud.

Kelajakda ziyorat turizmiga asoslangan sayyohlik agentligini ochish niyatidaman. Hozir esa insonlarga unutilmas va yorqin sayohatlarni tashkil qilishdan baxtiyorman.

Sabina SHARIPOVA,
Turizm fakulteti talabasi



Ta'til davrida universitetimizning Talabalar shaharchasi “Dolzarb 90 kun” dasturi doirasida kasb-hunar to'garaklari va mahorat darslari markaziga aylandi. Sartaroshlik, pazandachilik bilan bog'liq mahorat darslarining tashkil etilishi fikrimning yorqin misoli.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra o'qituvchisi



PAZANDANING OSHI QOZONDA

Dilorom Tashpo'latova tashabbusi bilan 2-sonli talabalar turar joyida “Pazandachilik sirlari” mavzusida master-klass tashkil etilmoqda. Mahorat mashg'ulotlarida talabalar va mahalla yoshlari ishtirok etishmoqda.

O'zbek milliy taomlarini tayyorlanish jarayoni va ovqatlanish madaniyati juda uzoq tarixga ega va xalqning ko'p yillik tajribasiga asoslanadi. Shuningdek, dunyo taomlari orasida eng shirin, xilma-xil taomlardandir. Ayniqsa, osh, manti, somsa kabi milliy taomlar nafaqat o'zbek oshxonasining eng tansiq taomi, balki xalqimizning

mehmondo'stligi va bag'rikengligi ifodasi, dasturxonimiz ko'rkidir.

Taomlarning tayyorlanish jarayonida mahalla yoshlarining onalari ham birgalikda ishtirok etib, hayotiy tajribalari bilan o'rtoqlashmoqda. Aytish mumkinki, bunday tadbirlar ishtirokchi qizlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli va foydali tashkil qilish, uy-ro'zg'or yuritish sirlarini o'rgatish, tansiq taomlar pishirish bo'yicha zarur ko'nikmalarni shakllantirishda asqotadi.

Sevinch TOSHPOLATOVA,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
talabasi



Universitetimizning
Maktabgacha ta'lim
fakulteti jamoasi
tomonidan Chirchiq
shahar 33-sonli davlat
maktabgacha ta'lim
tashkilotiga “Dolzarb 90
kun” loyihasi doirasida

KELAJAK EGALARI E'TIBORIMIZ MARKAZIDA!

tashkil etilayotgan ma'rifiy tadbirlarni yuksak saviyada o'tkazishga ko'maklashuvchi audio uskuna estalik sovg'a sifatida topshirildi.

Bugun bog'chalarda ham bolalarning ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga qaratilgan ma'rifiy tadbirlar ko'lamini oshirib bormoqda. Tarbiyalanuvchilarning

bilish, tanish jarayoni, ilm va madaniyatga intilishi muassasada o'tkazilayotgan tadbirlarning saviyasi va mazmuniga bog'liq. Bu tuhfa saviya va mazmun uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilsa, ajab emas.

Bu kabi tashabbuslar orqali ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yanada mustahkamlanishi bilan bir qatorda, ChDPU jamoasiga ham a'lo kayfiyat ulashdi.

HAMJIHATLIK, TASHABBUS VA O'ZGARISHLARGA BOY LOYIHA

“Dolzarb 90 kun” loyihasi rivojlanish, yangilanish va faol yoshlar siyosatiga qaratilgan keng ko'lamli tashabbus bo'lib, universitetning barcha tuzilmalarini – ma'muriyadan to talabalargacha – birlashtirgan holda, zamonaviy, xavfsiz va ilg'or ta'lim muhitini shakllantirishni maqsad qiladi. Ushbu muhim loyihada universitet Boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi faol hamkor sifatida ishtirok etib, xodimlar va talabalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida bir qator amaliy ishlarga qo'l urdi. Ushbu faoliyat doirasida:

- 50 nafardan ortiq xodimlarning farzandlari Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yuborildi;
- 40 tadan ziyod xodim uchun turli sanatoriylarga yo'llanmalar taqdim etildi;
- universitet tomonidan Chirchiq shahrida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida sportning futbol turi bo'yicha Jismoniy madaniyat fakulteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Rektor kubogi” sport tadbirlari moliyalashtirildi va tashkil etildi.

Bundan tashqari, moddiy yordamga muhtoj xodimlar va talabalarga ko'mak ko'rsatildi, yosh mutaxassislar rag'batlantirildi, faol ustozlar va xodimlar yo'llanmalar bilan taqdirlandi. Bu kabi amaliy harakatlar jamoa o'rtasida hamjihatlik, ishonch va mehr muhitini mustahkamlamoqda.

Universitetning Boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi yoshlar faoliyatini ham

doimiy qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Loyiha doirasida “Yoshlar media markazi”, “Intellectual va munozara klublari” kabi tashabbuslarga amaliy



yordam ko'rsatildi. Yoshlarga resurslar, maydonchalar va eng muhimi — ishonch berildi.

Kasaba uyushmasi hamkorligida universitetda sport musobaqalari, intellektual o'yinlar, adabiy kechalar va musiqiy festivallar tashkil etildi. Bunday tadbirlar jamoa ichidagi o'zaro hurmat va do'stlikni kuchaytirish, ijobiy psixologik muhitni shakllantirish hamda korporativ madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi – bu shunchaki loyiha emas. Bu – tizimli o'zgarishlarga turtki beradigan muhim jarayon. Universitet Boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasining ushbu loyihadagi ishtiroki va hissasi juda katta. U faqat ishtirokchi emas, balki o'zgarishlarning faol harakatlantiruvchisi sifatida namoyon bo'lishga harakat qilmoqda.

Loyiha yangi tashabbuslar bilan davom etmoqda!

Baxtiyor BEKMATOV,
Boshlang'ich kasaba uyushmasi
qo'mitasi raisi

Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat pedagogika universitetining
Axborot xizmati tomonidan tayyorlandi.